

## TYUTORLIK FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH: TASHABBUSLAR VA G‘OYALAR

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti tyutori A. Elmurodov*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimini samarali tashkil etish, talaba shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvlar, psixologik va ma’naviy ko‘makning ahamiyati, tashabbus va innovatsion g‘oyalar asosida samarali faoliyat yuritish yo‘llari tahlil qilinadi. Tyutorlik faoliyatida raqamli vositalardan foydalanish, talabalar bilan individual ishslash, ijtimoiy loyihalarda ishtiroy etish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tyutorlik, ta’lim, tashabbus, talaba, ma’naviyat, psixologik ko‘mak, innovatsiya, ta’lim sifati.

**Аннотация** В данной статье анализируется эффективная организация системы тьюторства в высших учебных заведениях, личностно-ориентированные подходы к обучающемуся, значение психологической и моральной поддержки, способы эффективного функционирования на основе инициативы и инновационных идей. В тьюторской деятельности освещаются такие вопросы, как использование цифровых инструментов, индивидуальная работа со студентами, участие в социальных проектах.

**Ключевые слова** Воспитание, образование, инициатива, ученик, духовность, психологическая поддержка, инновации, качество образования.

**Annotation** This article will analyze the ways of effective functioning in higher educational institutions on the basis of effective organization of the system of tutoring, approaches aimed at the student's personality, the importance of psychological and spiritual support, initiative and innovative ideas. Issues such as the use of digital tools, individual work with students, participation in social projects are covered in the activities of the office.

**Keywords** Tutoring, education, initiative, student, spirituality, psychological support, innovation, quality of Education.

**Kirish.** Ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, talabaga yo‘naltirilgan individual ishslash uslublari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday vositalardan biri bu – tyutorlik faoliyatidir. Bu faoliyat orqali talabaning nafaqat bilim darajasi, balki ijtimoiy, psixologik va ma’naviy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatiladi. Bugun tyutor – pedagog emas, balki maslahatchi, yetakchi va yo‘l ko‘rsatuvchi, ayni vaqtida talabani shaxs sifatida rivojlantiruvchi shaxsdir. Shu bois, tyutorlik faoliyatini

zamonaviy, tizimli va samarali yo‘lga qo‘yish ta’lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biridir.

**Asosiy qism.** Respublika davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilinganiga ko‘p bo‘lmadi. Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi buyrug‘i va Nizomi yangicha tizimga asos bo‘lgan edi. Bugun bir qancha OTMlar qatori Shahrисабз davlat pedagogika institutida ham tyutorlar ish olib bormoqda. Ayni kunda ularning soni 29 nafarga yetdi. Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti —ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari buniyodkorlik g‘oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo‘naltirilgan.

Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiya sohasida:

ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rnni, majburiyati, mas’uliyati va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish;

ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya sifatini o‘rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta’lim muassasasiga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ta’lim muassasasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

ta’lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning uzviy ma’lumotga ega bo‘lishlarini ta’minlash;

oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratish;

“Birinchi kurs maktabi” tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etish;

ta’lim muassasasining odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi (siyosati), ta’lim muassasasining ichki mehnat tartibi qoidalari hamda boshqa lokal hujjatlar bilan o‘ziga biriktirilgan talabalarni tanishtirish;

psixolog bilan birgalikda talabalarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish;

talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish, yuksak axloqiy fazilatlarni targ‘ib va tashviq etish, ularni Vatanga muhabbat, milliy qonunchiligidan hurmat ruhida tarbiyalash;

talabalarni boy tarixiy, milliy va diniy an'analarimizga yot bo'lgan illatlar, ya'ni terrorizm, separatizm, prozelitizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik, "ommaviy madaniyat", narkomaniya va uyushgan jinoyatchilikka murosasizlik va ularga qarshi kurash ruhida tarbiyalash;

talabalarning qonuniy manfaatini himoya qilish, ularga yaratilayotgan sharoitlar va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yetkazish, ularning o'qishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun tegishli choralarini ko'rib borish;

besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga talabalarni jalb qilish va ularning ushbu to'garaklardagi faol ishtirokini amalda ta'minlash;

talabalarni darsdan bo'sh vaqtarda tanlov va sport to'garaklariga jalb etish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;

nogironligi bo'lgan, yetim va ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan va kam ta'minlangan talabalarga alohida g'amxo'rlik qilish va ularga tegishli tartibda ijtimoiy, ma'naviy va psixologik yordam berish choralarini ko'rish;

talabalarda o'quv intizomini mustahkamlash, ularda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish, ularning ta'lim muassasasi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy tadbirlarida faol ishtirokini ta'minlash;

iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash;

iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya etish;

talabaning axloqi, muomala madaniyati, yurish-turishini muntazam kuzatib borish;

o'zlashtirish ko'rsatgichi past hamda tarbiyasi og'ir talabalar bilan tizimli ishlarni olib borish;

shuningdek, talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonardonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib u yerda yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va ularni yaxshilash bo'yicha mutasaddilarga taklif kiritish;

muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish;

talabalarning muammolarini bartaraf etishda bayonnomalarni shakllantirib, amaliy yordam ko'rsatish;

talaba tomonidan odob-axloq qoidalari va boshqa qoidalari buzilganda unga nisbatan chora ko'rish to'g'risida ta'lim muassasasi va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish;

ta'lim muassasasi, shahar va respublika doirasida tashkil etiladigan tadbirlarga talabalarni tartib va intizom, uyushqoqlik bilan olib kelish va ishtiroklarini ta'minlash;

talabaning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini va u haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni yorituvchi yig'ma jild hamda "Ma'naviyat soatlari" darsi va ish rejasidagi turli xil tadbirlarni qayd qilish jurnalini elektron tutish va yuritib borish.

b) O'quv va o'quv-uslubiy sohada:

talabalarning darslarga qatnashishlari bo'yicha kunlik davomatini yuritib borish;

talabalar tomonidan sababsiz qoldirilgan dars mashg'ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib borish;

talabalarning darslarni o'zlashtirish darajalarini nazorat qilib borish, innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlashga hamda ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishga ko'maklashish;

talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida o'z ustida mustaqil ishlashini tashkil etishga ko'maklashish;

talaba haqida fakultet dekanatiga tushayotgan ma'lumot asosida guruh sardori bilan birgalikda professor-o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'zlashtirishi past talabaga yordamlashib, o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan talabani unga biriktirishi, qo'shimcha darslar va maslahatlar tashkil etish, fanlar bo'yicha akademik qarzdorliklarni belgilangan muddatda topshirishini nazorat qilish.

v) Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida:

iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to'garaklar va klublarga jalb etish;

talabalarni innovatsion startaplarga jalb etish va ularning ijodiy faoliyklarini yo'naltirish;

talabalarni turli ilmiy tadbirlar: konferensiyalar, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va forumlarda ishtirok etishlarini uyushtirish;

talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko'mak berish va rag'batlantirish, ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta'lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag'batlantirilishini tashkil etish;

iste'dodli talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko'rsatish;

talabalarni kelgusida ilmiy faoliyat olib borishlarida ularga yaqindan yordam berish.<sup>1</sup>

### 1. Tyutorlik faoliyatining zamonaviy mohiyati

Tyutorlik faoliyati zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas bo'g'iniga aylanib bormoqda. G'arb davlatlarida bu tizim ko'p yillik tajribaga ega bo'lsa, bizda u so'nggi yillarda faoliyik kasb etmoqda. Tyutor – bu talabaning o'qishi, intellektual va ma'naviy

---

<sup>1</sup> Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-sentabrdagi 412-son buyrug'iiga 1-ilova.

rivoji, ijtimoiy moslashuvi bilan bevosita shug‘ullanuvchi pedagogdir. U o‘z faoliyatida psixologik, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanadi.

## 2. Samarali tyutorlik faoliyati shartlari va yondashuvlar

Tyutorlik faoliyatining muvaffaqiyati bir necha asosiy omillarga bog‘liq. Ulardan ayrimlari quyidagilardir:

- Talabaning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularga mos reja tuzish

- Interaktiv uslublardan foydalanish (trening, muhokama, rolli o‘yinlar)

- Har oy yoki semestr yakunida monitoring va tahlillar o‘tkazish

- Raqamli texnologiyalardan (Google Forms, Telegram bot, Zoom va b.) samarali foydalanish

- Doimiy refleksiya: talabaning fikrini tinglash va unga tayanib keyingi bosqichlarni rejalashtirish

## 3. Tyutor tashabbuslari va amaliy g‘oyalalar

Tyutor o‘z faoliyatida ijodiy va innovatsion g‘oyalardan foydalanishi zarur. Quyidagi tashabbuslar amalda samarali natija beradi:

- “Psixologik salomatlik haftaligi”: Har oyda stressni kamaytiruvchi trening va suhbatlar.

- “Qiziqarli dushanba”: Har haftaning boshida motivatsion video yoki iqtibos bilan suhbat.

- “Kitobxon tyutor guruhi”: Har oyda bitta asarni o‘qib, muhokama qilish.

- “Talaba yulduzi” loyihasi: O‘z ustida ishlayotgan, ijobiy natija ko‘rsatgan talabalarni rag‘batlantirish.

- “Ijtimoiy loyiha haftaligi”: Ko‘ngillilar harakati, ekologik tadbirlar, xayriya ishlari.

## 4. Bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishning ahamiyati

Bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish talabaning shaxsiy rivoji, stressdan holi hayoti va ijtimoiy faoliyatda ishtiroki uchun muhimdir. Tyutor ushbu yo‘nalishda quyidagi ishlarni amalga oshirishi mumkin:

- Talabalar o‘rtasida sport musobaqlari va sog‘lom hayot aksiyalari

- “Mening ustozim” deb nomlangan esse tanlovlari

- Ochiq mikrofon kechalari, teatr sahnalari tashkil etish

- Axborot texnologiyalariga oid mahorat darslari.

Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to‘garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste’dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta’lim olishi, ilm bilan shug‘ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi.



Xulosa qilib aytganda, tyutorlik faoliyati zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu faoliyatni samarali olib borish uchun chuqur bilim, pedagogik mahorat, psixologik sezgirlik va ijodiy yondashuv zarur. Innovatsion tashabbuslar orqali nafaqat o‘quv jarayoni, balki talabaning shaxsiy hayoti ham boyiydi. Tyutor – bu ko‘makchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, ba’zan esa eng yaqin do‘stdir. Tyutor o‘z faoliyati orqali ta’limning haqiqiy samarasiga hissa qo‘sadi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Vediooselektor. 19.01.2021
2. Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-sentabrdagi 412-son buyrug‘iga 1-ilova.
3. <https://daryo.uz/2023/05/30/Yangi-O‘zbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-bo‘ladi>